



OSTEARTROZ BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA XONDROPROTEKTOR-  
SPINNEKSNING SAMARADORLIGI

Mukhsimova N.R

Kuchkarova D.Sh

Kuziboyeva L.T

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti*

Tadqiqot maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi osteoartroz (OA) bilan og'rigan bemorlarda turli xondroprotektorlarning — xususan Chondromed va Spinneks preparatlarining klinik samaradorligini klinik, laborator va funksional ko'rsatkichlar asosida baholashdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqot Toshkent davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida olib borildi. Tadqiqot Respublika Revmatologiya Markazi, ixtisoslashgan ambulator artrologiya bo'limi, terapiya va nefrologiya bo'limlarida o'tkazildi. Tadqiqotda 2024–2025 yillarda ambulator va statsionar sharoitda davolangan 60 nafar bemor ishtirok etdi. Bemorlar davolash turiga qarab 2 guruhga bo'lindi: 1-guruh ( $n = 30$ ): Chondromed 2,0 ml mushak ichiga qabul qilgan bemorlar; 2-guruh ( $n = 30$ ): Spinneks 2,0 mushak ichiga qabul qilgan bemorlarni tashkil etdi. Klinik va laborator ko'rsatkichlar davolashdan oldin va keyin baholanib, davolash samaradorligi aniqlangan. Har ikkala guruhda quyidagi klinik ko'rsatkichlar tekshirildi: og'riqli bo'g'imlar soni (OBS), shishgan bo'g'imlar soni (SHBS), VASH shkalasi bo'yicha og'riq indeksi, ertalabki karaxtlik. Shuningdek, qo'shimcha ravishda: umumiy qon tahlili, SRO, qo'l va oyoq bo'g'imlarining rentgenografiyasi o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida osteoartroz bilan og'rigan bemorlarning klinik va laborator ko'rsatkichlari baholandi. Har ikki guruhda davolashdan oldin va keyin bo'g'im holati parametrlari, VASH shkalasi bo'yicha og'riq ballari, ertalabki karaxtlik davomiyligi ko'rsatkichlari taqqoslandi. Tadqiqot natijalari ertalabki karaxtlik, og'riqli bo'g'imlar soni (OBS), shishgan bo'g'imlar soni (SHBS) kamayishini ko'rsatdi. 2-guruhda (Spinneks olganlarda) natijalar 1-guruhga nisbatan sezilarli darajada pastroq bo'lgan ( $p < 0.05$ ). Laborator tekshiruvlarga ko'ra, davolashdan so'ng: CRO (C-reaktiv oqsil), RF (revmatoid faktor) ko'rsatkichlari 2-guruhda 1-guruhga nisbatan sezilarli darajada ko'proq kamaygan ( $p < 0.001$ ;  $p < 0.0001$ ).

Xulosa. Olingan natijalarga ko'ra, osteoartroz bilan og'rigan bemorlarda har ikkala preparat qo'llanganda ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Biroq, Spinneks preparatining biologik faol moddalari immunostimulyator va boshqa terapevtik xususiyatlarga ega bo'lgani sababli, Spinneks in'eksiyasini olgan 2-guruh bemorlarida yaxshilanish darajasi 0,5 marta yuqori bo'ldi va kasallikning klinik remissiyasiga erishildi.